IRFAN
AKADEMIYASI
ILM • TA'LIM • TARAQQIYOT


RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILM, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA INNOVATSIYALAR
UCHUN YANGI IMKONIYATLAR

OKTABR

TOSHKENT
O'ZBEKISTON



TALABALAR KASBIY KO'NIKMALARINING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Abduraxmonova Dildora Alijon qizi

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

o'qituvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.23317835

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak pedagogning shaxsiy va kasbiy sifatlarini zamon talablari asosida shakllantirish va shunday mutaxassislar tayyorlovchi oliy va o'rta maxsus ta'lim pedagoglarining kasbiy ko'nikmalarining pedagogik xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy ko'nikma, kasbiy-konstruktiv, kasbiy-tashkilotchilik, kasbiy-kommunikativ, kasbiy-gnostik, kasbiy-amaliy (maxsus).

Аннотатсия: В данной статье рассмотрены педагогические особенности формирования личностно-профессионалных качеств будущего педагога на основе современных требований и профессионалного мастерства преподавателей высшего и среднего спесиалного образования, осуществляющих подготовку таких спесиалистов.

Ключевые слова: профессионалная способност, профессионално-конструктивная, профессионално-организатсионная, профессионално-коммуникативная, профессионално-гностическая, профессионално-практическая (спесиалная).

Annotation: This article describes the pedagogical features of the formation of personal and professional qualities of the future teacher on the basis of modern requirements and the professional skills of teachers of higher and secondary special education who train such specialists.

Keywords: professional ability, professional-constructive, professional-organizational, professional-communicative, professional-gnostic, professional-practical (special).

Pedagogning kasbiy faoliyati – ijodiy jarayon bo'lib, nostandart, ko'zda tutilmagan turli vaziyatlarda tezda fikr yuritib, tegishli qarorlar qabul qilish va mos xatti-harakatlarni amalga oshirishni talab etadi.

Fikrimizcha, talabalarning kasbiy muhim fazilatlarini rivojlantirish va ularni pedagogik faoliyatga tayyorlash borasida, shuningdek, kasbiy ko‘nikmalarni ham nazarda tutgan holda, ularning tahsil olish jarayonida ta’sir etuvchi omillarni inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday omillar, ya’ni omillar sirasiga: umumkasbiy fanlarni, pedagogik amaliyot, gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlarni, maxsus fanlar hamda tanlov fanlarini kiritish mumkin. Tom ma’noda, bu omillar ta’lim muassasasining o‘quv-tarbiyaviy ishlari mazmunini tashkil etadi.

Bo‘lajak pedagogni kasbiy faoliyatga layoqati

Faoliyat	Kasbiy layoqatlilik	Kasbiy layoqatlilikning mazmuni
1. Kasbiy ko‘nikmalar to‘g‘risidagi me’yoriy hujjatlarni bilish.	K.1. Ta’limda siyosatni tushunadi va amalga oshiradi.	K.1.1. O‘z kasbga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlarni biladi va tushuntira oladi. K.1.2. O‘z kasbga oid siyosat va uning omillarni sanab beradi va tushuntira oladi.
2. Kasbiy bilim, malakalar va ma’lumotlar bilan boyitilgan o‘quv dasturlarini tuzish.	K.2. O‘quv dasturiga kasbiy bilimlani boyitish bo‘yicha tushunchalarni joriy etadi.	K.2.1. Ta’lim va unga taalluqli tushunchalarni biladi va ulardan foydalana oladi. K.2.2. O‘quv dasturlarini kasbga taalluqli tushunchalar bilan takomillashtira oladi.
3. Pedagogik o‘quv- tarbiya jarayonini tashkil etish.	K.3. Kasbiy faoliyatda hamda talabalarning mustaqil ta’lim olish jarayonini tashkil etishda zamonaviy texnologiyadan foydalana oladi.	K.3.1. Zamonaviy texnologiyalarni sanab beradi, usullarini aniqlab beradi. K.3.2. Ta’lim-tarbiya jarayonida zamonaviy texnologiyalarni qo‘llay oladi.
4. Talabalarning bilim va ko‘nikmalarini baholash.	K.4. Talabalarning kasbiy bilimlarini baholashda zamonaviy usullarni qo‘llay oladi.	K.4.1. Talabalar bilimini baholashda aynan qaysi turdagi AKTlarni qo‘llashni ko‘rsatib beradi. K.4.2. Talabalar bilimini baholash jarayonida shaffoflikni qay tarzda ta’minlashni ko‘rsatib

		beradi.
5. O‘z-o‘zini rivojlantirish.	K.5. O‘z-o‘zini kasbiy rivojlantira oladi.	K.5.1. O‘z kasbiy yo‘nalishidagi zamonaviy texnologiyalarni biladi va sanab beradi. K.5.2. O‘z kasbiy yo‘nalishida zamonaviy texnologiyalardan qanday foydalanganligi to‘g‘risida tushuntirib beradi.

Ayniqsa, umumta'lim maktablari pedagoglari faoliyatining o‘ziga xos jihatlaridan biri kichik yoshdagi o‘quvchilar bilan hamkorlikda ta'lim-tarbiya va tashkiliy ishlarni olib borish, ular shaxsi va jamoasi haqida to‘g‘ri va aniq ilmiy tasavvurga ega bo‘lish, ularning qiziqishlari va mayllarini rivojlantirish uchun o‘zaro munosabatlarini samarali uyushtirish kabi xususiyatlar pedagogdan kasbiy va shaxsiy fazilatlari yetarli darajada bo‘lishi muvaffaqiyat garovi.

Asosiy maqsad yuqori darajali kasbiy ko‘nikmaga ega bo‘lgan o‘qituvchi tayyorlash hisoblanadi va uni quyidagi xususiyatlarga bo‘lishimiz mumkin:

Birinchisi. Kompetentli yondashuv ta'lim natijasiga urg‘u beradigan yondashuv. Bunda ta'lim natijasi o‘zlashtirilgan axborotlar yig‘indisi emas, balki shaxsni turli muammoli vaziyatlarda harakat qilish qobiliyatidan iborat bo‘ladi.

Ikkinchisi. Kasbiy bilimlilik hozirgi kunda innovatsiyalarni tadbiq etish uchun kreativlikka bog‘liq bo‘lgan zamonaviy ta'lim texnologiyalariga asoslangan. kasbiy kreativlik (kasb sohasidagi ijodkorlik) kasbiy bilimga ega o‘qituvchi faoliyatidagi ijodiy qobiliyatdir. Kasbiy kreativlik zamonaviy o‘qitish muhitini belgilab, kasbiy bilimlarni rivojlantirishga olib keladi.

Uchinchisi. Kasbiy bilimlarni «Umumiy pedagogika» fani va maxsus kursi asosida rivojlantirish jarayoni olib boriladi.

"Pedagoglarning kasbiy ko‘nikmalari" deyilgan dastlabki tushuncha zamirida, aniq vaziyatlarda amalga oshiriladigan kasbiy ko‘nikma ishlarining psixologik asoslarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan muayyan tartibdagi turkum ta'lim ishlarini nazarda tutamiz.

Mazkur metod, biz nazarda tutgan tushunchaning muhim fazilatlarini qamrab olishga

hamda yo‘nalishlarimizni yanada oydinlashtirga imkon berdi.

O‘rganilgan maxsus va psixologik-pedagogik adabiyotlar tahlili, shuningdek, umumta’lim maktablari pedagoglari tajribasini, metodist va pedagogik amaliyotga mutasaddi rahbarlarning faoliyatini kuzatish, o‘rganish va samimiy suhbatlardan ma’lum bo‘lishicha, kasbiy ko‘nikmalar – pedagoglar, tarbiyachi va tashkilotchilarning aniq maqsad bilan o‘quvchilarga pedagogik ta’sir ko‘rsatishning murakkab tizimi ekanligi ma’lum bo‘ldi. Ta’kidlash joizki, ta’sir ko‘rsatish tizimi murakkab tavsifga egadir, zero “har qanday sub’ektning ob’ektga ta’siri, o‘zaro hamkorlik jarayonida ta’sirlanayotgan ob’ekt ruhiyatining sifat jihatidan o‘zgacha ko‘rinishidir”

Ma’lum bo‘lishicha, lozim deb topilgan yoki zarur bo‘lgan tushunchaning muhim sifatlari bo‘lmish: umumta’lim maktablari faoliyatining muhim negizini tashkil etuvchi kasbiy ko‘nikmalarning tuzilishini, mazmuni va tamoyillarini nazariy jihatdan bilish tashkil etadi.

Shu tamoyillar asosida biz lozim yoki zarur bo‘lgan tushunchaga quyidagicha ta’rif berdik:

Pedagogning kasbiy ko‘nikmasi – talaba shaxsini komil inson qilib rivojlantirishga yo‘naltirilgan, innovatsion pedagogik texnologiyalar yordamida aniq maqsad sari yetaklovchi, sub’ekt tomonidan muvaffaqiyatli o‘zlashtirilgan sa’y-harakatlarning muayyn tizimiga aytiladi.

Pedagogning kasbiy ko‘nikmalari – ko‘pqirrali murakkab jarayon bo‘lib, u muayyn ketma-ketlik, ierarxik sa’y-harakatlar tizimidan iborat. Shuningdek, kasbiy ko‘nikmalar pedagog faoliyati tuzilishida muhim element hisoblanib, ichki murakkab konstruksiyaga ega, umumiy maqsad bilan belgilangan, ko‘nikma shaklidagi alohida elementlar tizimi.

Shu ma’noda, umumta’lim maktablari pedagoglarining kasbiy ko‘nikmalari tuzilishini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir (Mazkur jarayonda S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev, L.S.Vigotskiy, M.A.Mileryan, N.V.Kuzmina, M.G.Davletshin, R.Z.Gaynutdinov, N.M.Majidov va boshqalarning o‘qituvchi kasbiy faoliyati tuzilishi haqidagi ta’limotiga tayandik).

Mohir pedagoglarning faoliyatini tahlil qilish jarayonida dialektik jihatdan o‘zaro shartli bog‘langan bloklardan tashkil topgan ahamiyatli komponent tuzilishlari aniqlandi.

Bloklar orasidagi o‘zaro munosabatlar va ularning absolyut egallagan o‘rinlariga ko‘ra, quyidagi ko‘rinishni tashkil qiladi.

- kasbiy-konstruktiv ko‘nikmalar
- kasbiy-tashkilotchilik ko‘nikmalar
- kasbiy-kommunikativ ko‘nikmalar
- kasbiy-gnostik ko‘nikmalar
- kasbiy-amaliy (maxsus) ko‘nikmalar

Umumta’lim maktablari pedagoglari **kasbiy ko‘nikmalarining konstruktiv komponenti** tuzilishi ular faoliyatida markaziy o‘rinlardan biri ekanligi ma’lum bo‘ldi.

Ma’lumki har qanday faoliyat qilingan ishlar yuzasidan tahlillar, erishilgan yutuq va kamchiliklarni nazardan o‘tkazish hamda shular asosida kelgusidagi istiqbolli rejalar tuziladi.

Pedagogik muammolarni ijobiy hal etish jarayonining murakkabligi uning pedagog tomonidan yaratilishidadir. Ta’lim-tarbiya jarayonining o‘zga faoliyat turlaridan farqli tomoni undagi vaziyatlarni modellashtirishdan iborat, zero izlanish xavfi bunda tor doirada kuzatiladi. “... fanlardan bir xil tayyorgarlikka ega bo‘lgan pedagoglar tomonidan bir xil masalalarning turli darajada yechilishi, ularda turli tizimdagi ko‘nikmalarning mavjudligi hamda bir xil ko‘nikmalarning turli darajada shakllanganligi bilan izohlash mumkin”.

Kasbiy-konstruktiv ko‘nikmalarning mazkur komponentdan o‘rin egallagan mashg‘ulotlarni rejalashtirish, sport musobaqalari, ertalik va bayram ssenariyalarini tuzish, ontogenezning bu davridagi o‘quvchilar hayoti va ijodi uchun muhimdir.

Ma’lumki, o‘quvchilarning kundalik ta’lim-tarbiya ishlarini rejalashtirish umumta’lim maktablarining yillik va oylik rejalaridan kelib chiqqan holda yaratiladi va o‘quvchilar hayotining samarali, izchil va to‘laqonli kechishini ta’minlashga qaratilgan. Pedagog ayni shu tadbirlarni risoladagidek o‘tishini ta’minlash uchun uning rejasini DTSda belgilangan ko‘rsatmalar asosida bajarishi, sport musobaqalari, ertalik va bayram ssenariylarini taqvimdagi sanalar bilan uyg‘unlashtirishi, undagi ishtirokchilar va mutasaddi shaxslarning vazifalarini aniqlashi, faol ishtirokchilarni rag‘batlantirishi, ularni namuna qilib ko‘rsatishi

maqsadga muvofiq, zero, bu singari tadbirlarni yuqori saviyada o‘tishi o‘quvchilarda ko‘tarinki ruh va kelgusi tadbirlarni orziqib kutish ruhini shakllantiradi. Bu esa pedagogdan yuksak mahoratni talab qiladi.

Mazkur blokdan uchinchi o‘rinni egallagan istiqboldagi ta’lim-tarbiya ishlarining dastur va rejalarining pirovard maqsadi komil insonni, yurt uchun fidoyi kishilarni shakllantirishga qartilganligiga ishoradir. Har qanday faoliyatning maqsadi uning predmetliligida namoyon bo‘ladi. Pedagog faoliyati esa uning ijtimoiy tavsifga ega ekanligida, ya’ni jamiyat uchun, porloq kelajak uchun kerakli insonlarni yetishtirishga qaratilgan. Shu bois pedagog vazifasi jamiyat talab va istaklaridan kelib chiqishi zarur.

O‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga ko‘ra, ularga pedagogik ta’sir ko‘rsatish metodlarini to‘g‘ri tanlash ko‘nikmasi pedagogdan o‘quvchilarning yoshi, layoqati, qobiliyati va qiziqishlarini inobatga olib, ularga pedagogik ta’sir ko‘rsatish mexanizmini yaratishni talab etadi. Zero, har bir talaba o‘zining individualligi va takrorlanmasligi bilan ajralib turadi, o‘ziga xos e’tibor va diqqatni talab etadi. Bu esa pedagogdan ilmiy va amaliy bilimlarni mukammal egallashga chaqiradi.

Shuningdek, bu blok doirasidagi o‘quvchilarga yetkazilayotgan ma’lumotlar mazmuni va kompoziyatsiyasini loyihalashtirish faoliyatda innovatsion metodlardan foydalanish, kasbiy faoliyatni professiografiya va professiogramma tamoyillari asosida modellashtirish singari ko‘nikmalar ham o‘zining muhimligi bilan ekspert sifatida tanlab olingan o‘qituvchilarlar tomonidan ijobiy baholangan.

Kasbiy-kommunikativ komponenti tuzilishidagi **ko‘nikmalar**ning ahamiyati ekspert sifatida tanlab olingan o‘qituvchilar tomonidan yuksak baholanganligi fikrimiz dalili. *O‘quvchilarning dardlari, hissiy-kechinmalari va kayfiyatlariga oshno bo‘lish (empatiya)* hamda *pedagogik nazokat madaniyati, o‘quvchilar bilan “umumiy til” topish* ko‘nikmalarining yuqori ballga ega bo‘lishi, pedagoglarning talabajon bo‘lishiga, ularning kundalik kayfiyati bilan hisoblashishiga, dardlariga sherik bo‘lishiga, har bir talabaning tavsifi va fe’l-atvoriga ko‘ra “umumiy til” topa olishi o‘ta muhim. Ana shundagina talabaning mehrini qozonishi, uning ishonchiga kirishi mumkin.

Kasbiy-gnostik komponenti tuzilishidan o‘rin egallagan **ko‘nikmalar** pedagogdan o‘z sohasiga doir ilmiy-nazariy bilimlarni ham talab etadi.

Masalan, o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini, shuningdek o‘quvchilar jamoasining o‘ziga xos taraqqiyot qonuniyatlarini bilish ko‘nikmasi talabaning psixologik, shaxsiy, ijtimoiy va jismoniy sohalarining rivojlanishi qonuniyatlarini, organizmda kechadigan biologik o‘zgarishlarni bilishi, o‘quvchilar jamoasining o‘ziga xos ichki rivojlanish qonuniyatlarini, rasmiy va norasmiy liderlarning jamoaga ta’siri haqidagi ma’lumotlarga ega bo‘lishi talab etiladi.

Respondentlarning ta’kidlashicha, **kasbiy-amaliy (maxsus) ko‘nikmalar** pedagog faoliyati komponenti tuzilishida yetakchi o‘rinni egallar ekan.

Masalan, aktyorlik san’ati: ertak, doston va boshqa xalq og‘zaki ijodi personajlarini qo‘g‘irichoq teatri yoki sahna ko‘rinishlarida ijro etish ko‘nikmasi pedagogdan aktyorlik mahoratiga ega bo‘lishni, o‘quvchilarning hayotida ertak, doston va boshqa xalq og‘zaki ijodi qahramonlari haqidagi tasavvurlari ular xotirasida yorqin iz qoldirishini ta’kilashadi. Pedagog ana shu qahramonlarni turli sahna ko‘rinishlarda ijro eta olishi, o‘quvchilarga rollarni ajratib, sevikli qahramoni siymosida o‘zini his qilishga imkon bermog‘i lozim.

Bunday tajribani o‘zlashtirish esa ta’lim tufayli amalga oshiriladi. Shu sababli, mazkur ko‘nikmani pedagog o‘z faoliyatida shakllantirishi maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. O‘zbekiston respublikasida kasbiy malakalar, bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi faoliyatini tashkil etish choralari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 15.05.2020 yildagi 287-sonli qarori.
2. Azizxo‘jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: 2004
3. Bespalko V.P. Slagaemыe pedagogicheskoy texnologii. – M.:1989
4. Bespalko V.P. Pedagogika i progressivnыe texnologii obucheniya. – M.:1995
5. Bozorova S. Oliy maktabda kasbiy yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari. – T.:2000